



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**


**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**
2023- YIL YANVAR-IYUN OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-iyun oylarida)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7327,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 58,2 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 6,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

mln. so'm

Yanvar-iyun

FHI,% da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4264,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 58,2 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun


55,7 %

2023- yil yanvar-iyun

58,2 %




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,8 % ni (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 5,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,0 % (3,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,5 % (16,2 %) va quyi texnologiyalisi – 71,7 % (74,8 %) ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2023- yil









Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 2,7 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 73,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 5,5 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 177,1 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,7 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,9 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *



* Yanvar-iyun oylari yirik korxonalar bo‘yicha



2023- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 9,3 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,1 % ga kamaygan), 0,8 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (63,9 % oshgan) hamda 18,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (47,9 % ga kamayib) ishlab chiqarilib, past o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	10446	2205	-8241
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	516,6	846,5	329,9
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	9,5	9,3	-0,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	35,7	18,6	-17,1
Paxta tolasi, ming t.	13,9	19,8	5,9


Yanvar-iyun oylari yirik korxonalar bo'yicha

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,04 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 13,8 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,2 % gacha ko'paydi, fizik hajm indeksi esa, 3,1 martaga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 10,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,8 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 341,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 82,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 32,0 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1302,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 60,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 12,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 163,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 14,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1391,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 78,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 %, fizik hajm indeksi 62,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 142,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 73,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 93,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 96,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni, fizik hajm indeksi 116,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 203,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 50,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 71,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 46,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3000,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,9 %) ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	8360,8	8490,1	129,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	58,2	95,7	37,5

yanvar-iyun oylari yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 %) ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	18,5	18,8	0,3
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	7,8	7,2	-0,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 2,4 martaga oshgan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 1,2 % ga kamayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1565,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-iyun

68,5%

2023- yil
yanvar-iyun

74,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-iyun

31,5%

2023- yil
yanvar-iyun


26,0%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,8 % (2022- yil yanvar-iyun oylarida 65,8 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 21,2 % , Guliston shahri 20,6 % , Yangiyer shahri 16,7 % hamda Boyovut tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (112,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Oqoltin tumani (152,1 %), Guliston tumani (148,3 %), Sardoba tumani (146,1 %) hamda Yangiyer shahri (139,1 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 21,2 %, shuningdek, Guliston shahri 20,6 % ni, Yangiyer shahri 16,7 % ni, Boyovut tumani 8,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to'g'ri kelib, 29,4 %, shuningdek, Sirdaryo tumani 29,1 % ni, Boyovut tumani 8,6 % ni, Yangiyer shahri 8,4 % ni tashkil etdi.

1022,3 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-iyun

1490,4 mlrd. so'm


2022- yil yanvar-iyun

406,7 mlrd. so'm

2023- yil yanvar-iyun



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahriga to'g'ri kelib, 19,6 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 18,4 % ni, Guliston shahri esa 17,5 % ni tashkil etdi.





o'sish sur'ati
mlrd. so'm

710,5 mlrd. so'm
2021-yil yanvar-iyun

816,0 mlrd. so'm
2022-yil yanvar-iyun




1159,2 mlrd. so'm
2023-yil yanvar-iyun



Sirdaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahriga to'g'ri kelib, 44,2 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 19,6 % ni, Guliston shahri esa 8,0 % ni va Boyovut tumani 5,4 % ni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyati



FHI, % da
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahri (167639,8 ming so'm), Sirdaryo tumani (10632,4 ming so'm) hamda Yangiyer shahri (7976,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8135,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sirdaryo viloyati

2021- yil

5511,9 ming so'm

2022- yil

6246,5 ming so'm

2023- yil

8135,4 ming so'm



01

2021- yil

121,3 %

02

2022- yil

104,6 %

03

2023- yil


183,6 %

o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2385,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1738,5 ming so'm bo'lgani holda, Yangiyer shahrida– 5554,7 ming so'mni, Guliston shahrida– 3327,1 ming so'mni va Sirdaryo tumanida– 2393,4 ming so'mni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 1521 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 318 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20.9 %) Guliston shahriga, 218 tasi (14.3 %) Sirdaryo tumaniga, 148 tasi (9,7 %) Mirzaobod tumaniga, 144 tasi (9,5 %) Boyovut tumaniga va 142 tasi (9,3 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 46 ta loyiha bo'yicha 833,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 18,9 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 463 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 22,3 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.